



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari v.b.:
Sh.Yusupov**

**«8» sentabr 2026 y.
№ 572**

**Bank mobil ilovasida kartalararo pul o‘tkazmalarini (P2P) yuz orqali tasdiqlash
tizimi bo‘yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

№	Asosiy ma’lumotlar va talablar nomi	Ma’lumotlar va talablar mazmuni
1	Tashkilotchi/Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmat turi	Bank mobil ilovasida kartalararo pul o‘tkazmalarini (P2P) yuz orqali tasdiqlash tizimini yo‘lga qo‘yish.
3	Tanlov savdolarini o‘tkazish uchun asos	- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni; - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmoni; - Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrdagi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi; - Markaziy bankning 2026-yil 6-iyuldagi 45-15/4247 XDFU-sonli xati; - Raqamli biznes departamentining 2026-yil 27-avgustdagi 4518-sonli bildirishnomasi.
4	Buyurtmachi manzili	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko‘chasi, 18-A uy.

5	Xizmatlarning batafsil tarkibi	Xizmat nomi - “P2P o‘tkazmalarini yuz bilan tasdiqlash” (keyingi o‘rinlarda - “Tizim”). Mazkur xizmat doirasida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim: ⌚ mijoz qurilmasini ro‘yxatdan o‘tkazish va tasdiqlashning kriptografik faktorini bank mobil ilovasidagi mijoz hisob yozuviga bog‘lash; ⌚ bank mobil ilovasida mijoz operatsiyalarini bir martalik imzolangan token chiqarish orqali tasdiqlash. Ijrochining majburiyatlari: ⌚ zamonaviy texnologiyalarga asoslangan va xavfsizlik talablariga javob beradigan Tizimni taqdim etish; ⌚ bank ilovalariga integratsiya qilish uchun vosita (SDK) taqdim etish; ⌚ Tizimning 24/7 rejimida ishlashini, mavjudlik darajasi (SLA) kamida 99% bo‘lishini ta’minlash; ⌚ Tizim ishlashi davomida yuzaga keladigan xatolarni aniqlash yoki bank tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish. Ijrochining huquqlari: ⌚ Tizim ish faoliyatini yaxshilash uchun yangi funksional imkoniyatlarni taklif qilish; ⌚ dasturiy ta’minot kodlari va arxitekturasini o‘zida saqlab qolish; ⌚ uning ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida Tizimni yangilash, bu haqda Buyurtmachini oldindan ogohlantirish; ⌚ shoshilinch xatolar va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish maqsadida Tizim faoliyatini ma’lum vaqtga oldindan ogohlantirmasdan to‘xtatib turish; ⌚ Buyurtmachining takliflarini o‘rganib chiqib, ularni asoslantirilgan holda rad etish; ⌚ Tizim tomonidan foydalaniladigan kutubxonalar, operatsion tizimlar yoki boshqa modullarning yangi versiyalariga o‘tish zarurati tug‘ilganda, Buyurtmachini oldindan ogohlantirgan holda yangilash; ⌚ Buyurtmachi tomonidan Tizim serveriga DDOS-hujum aniqlangan taqdirda, oldindan ogohlantirmasdan bloklash. Buyurtmachining huquqlari:
---	--------------------------------	--

		⌚ Tizimni Buyurtmachining axborot tizimlariga integratsiya qilish jarayonida yordam yoki yo‘riqnomalarni so‘rash, yuzaga keladigan muammolar, xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha Ijrochi bilan birgalikda ishlash; ⌚ Tizimning 24/7 rejimida barqaror va xatosiz ishlashini, mavjudlik darajasi (SLA) kamida 99% bo‘lishini talab qilish; ⌚ Tizimda yuzaga keladigan xatolarni bepul bartaraf etishni talab qilish; ⌚ Tizimda o‘tkazilgan turli testlar natijalari hamda standartlardan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatlarni so‘rash. Tizimga qo‘yiladigan talablar: 1. “Tirik” foydalanuvchiga tegishli fotosuratni tekshirish (Liveness Detection). ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ tirik inson tasvirini qalbakilashtirilgan tasvirdan (fotosurat, videoyozuv, niqob) ajrata olishi, natijani “tirik/qalbakilashtirilgan” ko‘rinishida hamda ishonchlik bahosi bilan taqdim etishi; ⌚ quyidagi qo‘shimcha tekshiruvlarni amalga oshirishi: ⌚ fotosuratning xiraligini aniqlash; ⌚ bir nechta yuz mavjudligini aniqlash; ⌚ ko‘zlarning ochiq/yopiq holatini tekshirish; ⌚ tasvir rangli ekanligini tekshirish; ⌚ boshning burilish burchagini nazorat qilish. 2. Yuzni identifikatsiya qilish (1:N Face Recognition) ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ ma’lumotlar bazasida saqlanayotgan yuz tasvirlari bilan 1:N usulida taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lishi; ⌚ False Negative Identification Rate (FNIR) - False Positive Identification Rate (FPIR) = 0,1% bo‘lganda 3% dan oshmasligi (1,6 mln ta tasvirdan iborat baza, frontal surat); ⌚ FNIR (Rank-1) - 0,5% dan oshmasligi; ⌚ shablonni shakllantirish vaqti - 5 soniyadan oshmasligi; ⌚ quyidagi funksional imkoniyatlarni ta’minlashi: ⌚ identifikatsiyani yuqori tezlik va aniqlik bilan amalga oshirish; ⌚ yuz tasvirlarining cheklanmagan soni bilan ishlash
--	--	--

		imkoniyati; ⌚ yuqori o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlarini ta’minlash. 3. Yuzlarni taqqoslash (1:1 Face Comparison) ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ 1:1 taqqoslash usuli orqali ikkita yuz tasviri bir shaxsga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi; ⌚ False Non-Match Rate (FNMR) - False Match Rate (FMR) = 0,00001 bo‘lganda 0,6% dan oshmasligi; ⌚ javob berish vaqti - 5 soniyadan oshmasligi. 4. Stekning moslashuvchanligi ⌚ Kotlin va Swift native texnologiyalari bilan mosligi.
6	To‘lovni amalga oshirish shartlari	Bajarilgan ishlar va xizmatlar to‘g‘risidagi dalolatnoma, hisob-faktura buyurtmachi va ijrochi tomonidan imzolanganidan so‘ng, 5 (besh) bank ish kunida to‘lov amalga oshiriladi.
7	Xizmat ko‘rsatish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank ish kunida xizmatlar taqdim etilib, shartnoma summasi to‘liq yakunlanguncha amalga oshiriladi.
8	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to‘liq bajarilganidan so‘ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
9	G‘olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
10	Bog‘lanish uchun aloqa telefonlari	+998781509339
11	Baholash mezonlari	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari bo‘yicha baholanadi.

kelishuvchilar: E.Abduraxmanov, B.Shamsiev, A.Abdujabbarov, Z.Orifkhojayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=iE73cB25&id=91d418bd-e3d0-4f1f-84c7-8ac331404556>